

## ONA TILI – MILLATNING RUHIDIR

**Haqqulova Hilola Ibrohimovna**

Buxoro shahar 22 IDUM, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** O'zbekistonning har bir fuqarosi o'z ona tilisini sevadi, uni hurmat qiladi va e'zozlaydi. Chunki aynan shu til orqaligina har qanday millatning qay tarzda yashayotganligini, rivojlanayotganligini, yoki aksincha, orqada qolayotgan va qashshoqlashib borayotganligini bilishimiz mumkin. Shuning uchun ham bejizga: "Til – millat ko'zgusi", - deyishmaydi.

**Kalit so'zlar:** milliy til, millat ruhi, shoirlar fikri, davlat tili, o'zbek tilining yozma matni

## NATIVE LANGUAGE IS THE SOUL OF A NATION

**Hakkulova Hilola Ibrahimovna**

Bukhara city SSCS 22, teacher of native language and literature

**Abstract:** Every citizen of Uzbekistan loves, respects and honors his native language. Because it is only through this language that we can know how any nation is living, developing, or, on the contrary, lagging behind and getting poorer. That is why it is not for nothing that they say: "Language is the mirror of the nation."

**Key words:** national language, spirit of the nation, opinion of poets, state language, written text of the Uzbek language

Milliy tilimizga, ona tilimizga bo'lgan e'tibor, nafaqat bugungi kunda, balki tarixning barcha davrlarida ham dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Shu o'rinda bobolarimiz aytgan quyidagi purma'no fikrlarni eslaylik: "Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurgon oyinayi hayoti til va adabiyotdir. Milliy tilni yo'qotmak millat ruhini yo'qotmakdur" (M.Behbudiy). E'tibor beryapsizmi, milliy tilni yo'qotmak millat tilini yo'qotmakka qiyoslanmoqda. Darhaqiqat, tilning ahamiyati, uning mavjudligi har qanday yurt, millat taraqqiyotini belgilab berishi shubhasiz. Ayniqsa, bugungi globallashuv dunyo xalqlarining turmush tarzi umumiylilik kasb etgan bir davrda yuqoridagi so'zlarning zalvori ikki hissa ortadi.

Til – millat ko'zgusi, ma'naviyat sarchashmasidir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov bejizga ona tilimizni: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror

jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir" deya e'tirof qilmagan. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar.

Yozuvchi va shoirlarimiz tilimiz haqida ko'plab purma'no hikmatli so'zlarni aytganlar va tilni turlichcha ta'riflaganlar. Abdulla Oripov o'zbek tili yo'qolsa, to'tiga aylanib qolishini, Erkin Vohidov ona tilimiz o'lmasligini bot-bot ta'kidlaydi. Rasul Hamzatov esa ona tilisi yo'qolsa, hatto o'limga ham rozi ekanligini qalamga oladi. Tarix guvohki, mana bir necha ming yillardan beri ona tilimiz hanuzgacha o'zining ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. O'zbek tilining eng ahamiyatli jihat shundaki, u shunday shirali, har bir quloqqa xush yoqadi, eshitgan inson entikib ketadi. Jonajon tilimiz, shoir Mirtemir aytganidek, yoshligimizdanoq jon-u qulog'imizga singib ketgan. Onalarimiz aytgan allalari-yu, bobo-buvilarimizdan eshitgan ertak, hikoya, rivoyat va masallar orqali yuragimiz tub-tubigacha kirib borgan, o'z navbatida ona tilimizga, ona vatanimizga muhabbat uyg'otgan.

1989 yil 21 oktyabr. "Davlat tili haqida"gi Qonun qabul qilinib, o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lган ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili davlatimizning bayrog'i gerbi, madhiyasi kabi qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramzları qatori e'zoz va ehtiromga sazovor bo'ldi. Keyingi yillarda Davlat tilining ijtimoiy hayotda tutgan mavqeini yana-da mustahkamlash maqsadida bir qator ishlar olib borilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil

21 oktyabrdagi farmoni bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining tarkibiy bo'linmasi hisoblangan Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. Qadimda xalqlar o'z turar joylaridan majburan ko'chirilganlari bois ular boshqa mintaqalarda so'zlashuvchi xalqlar bilan qorishib ketib, ularni tillarini o'zlashtirishga majbur bo'lган. Lotin Amerikasidagi ayrim xalqlar esa alkogol va giyoxvand moddalar iste'moli tufayli yo'q bo'lib ketgan. Endilikda esa kichik bir xalq yoshlарining kelajagi porloq sifatida ko'rildigani ikkinchi xalq tilidan foydalanishga urinayotgani bois tillar yo'qolmoqda. Qachonki bolalar o'z ona tillarida o'qishni to'htatar ekan, o'sha til yo'qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o'sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri

bilan bevosita bog'liq. Til har bir millat madaniyatining o'zagidir. Shu sababli ham tilning saqlanishi xalq taraqqiyoti va kelajagini belgilaydi. Til xalqni birlashtiradi, tarbiyalaydi, o'qitadi, urf-odat, ananalarini saqlaydi. Shunday ekan, ona tilimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirishda, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shishda har birimiz tilimizga chuqrur hurmat bilan yondashimiz kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Хайдарова Н. Г., Убайдуллоев А. Мы должны воспитать молодежь достойной наших великих предков, образованными и просвещенными личностями //Достижения науки и образования. – 2018. – №. 5 (27). – С. 44-45.
2. Ganiyevna K. N., Nurxon o'gli S. M. Teaching Foreign Languages in Higher Education Institutions in Uzbekistan //Eurasian Research Bulletin. – 2022. – Т. 7. – С. 34-38.
3. Ganievna K. N., Alibek U. Uzbekistan is the generous country //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 4 (17). – С. 98-99.
4. Ganievna K. N., Muhammadislom R. Psychological approach in teaching methods //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 4 (17). – С. 101-102.